

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-------------------|
| B.M.Qandov | |
| Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi..... | 302 |
| U.J.Mansurov | |
| Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari..... | 308 |
| M.M.Alimova | |
| 1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi | 312 |
| J.Museyibzada | |
| Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations..... | 315 |
| A.A.Azizov | |
| Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida) | 324 |
| A.T.Ahmedov | |
| Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari | 328 |
| D.A.Urinbayeva | |
| Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni..... | 334 |
| T.Ch.Xoliyarov | |
| Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi | 340 |
| X.X.Mamajonov | |
| Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniy imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar | 347 |
| I.S.Yusupov | |
| Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi | 351 |
| F.K.Jumanazarova | |
| Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari..... | 356 |
| U.X.Gulmatov | |
| O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni | 359 |
| | ADABIYOTSHUNOSLIK |
| U.B.Matmurotova | |
| Badiiy tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida..... | 364 |
| Sh.A.Safarova | |
| "Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish | 369 |
| D.I.Nazarova | |
| Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar | 374 |
| | TILSHUNOSLIK |
| A.B.Uralov | |
| Til sathlarida nomutanosiblik | 381 |
| A.Sh.Muxamadiyev | |
| Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature..... | 386 |
| Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova | |
| Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida | 393 |
| U.Sh.Turaeva | |
| Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida..... | 398 |
| Y.T.Rakhmonkulova | |
| A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages | 401 |
| O.F.Turdaliyev | |
| "Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli | 405 |
| M.O.Usarova | |
| Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari | 413 |
| Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова | |
| Смысловые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер | 417 |
| B.Q.Nomonov | |
| Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi..... | 426 |



UO'K: 94

AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATI TARIXINING USMONIYLAR IMPERIYASI TARIXSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM FIKR VA MULOHAZALAR**НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ И ВЗГЛЯДЫ ОТНОСИТЕЛЬНО ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ ЖИЗНИ И ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АМИРА ТЕМУРА В ИСТОРИОГРАФИИ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ****SOME CONSIDERATIONS AND VIEWS ON THE STUDY OF THE HISTORY OF THE LIFE AND STATE ACTIVITIES OF AMIR TEMUR IN THE HISTORIOGRAPHY OF THE OTTOMAN EMPIRE**

Mamajonov Xumoyun Xomidjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Usmoniy imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Usmoniy turk tarixchilari tomonidan Sohibqiron shaxsini tadqiq etishni keltirib chiqargan sabablar hamda Temuriylar davrida yaratilgan asarlarning Usmoniy turk tiliga tarjima qilinishi to'g'risidagi fikrlar mazkur tadqiqotdan o'rin olgan.

Аннотация

В данной статье изучаются жизнь и государственная деятельность Амира Темура в историографии Османской империи и освещаются этапы развития. В данное исследование включены причины изучения Сахибкирана османско-турецкими учеными-тимуридами и идеи о переводе произведений, созданных в период Тимуридов, на османско-турецкий язык.

Abstarct

This article studies the life and state activities of Amir Temur in the historiography of the Ottoman Empire and highlights the stages of development. This study includes the reasons for the study of Sahibkiran by Ottoman-Turkish Timurid scholars and ideas for translating works produced during the Timurid period into Ottoman-Turkish.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Usmoniy imperiyasi, tarixshunoslik, Mirxondning "Ravzat us-safa" asari, Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur" asari, "Temur Ko'ragon tarixi" asari, Yildirim Boyazid.

Ключевые слова: Амир Темур, Османская империя, историография, труд Мирханда «Равзат ус-сафа», труд Ибн Арабшаха «Аджаиб уль-макдур фи тарихи Таймур», «История Темура Корогана», Йылдырым Баязид.

Key words: Amir Temur, Ottoman Empire, historiography, Mirkhand's work "Ravzat us-safa", Ibn Arabshah's work "Ajaib ul-makdur fi tarihi Taimur", "History of Temur Koragan", Yildirim Bayazid.

KIRISH

Amir Temur hamda temuriy hukmdorlar jahon siyosati, madaniyati hamda ilm-fan tarmog'iga sezilarli hamda ijobiy ta'sir ko'rsatgani bois, asrlar davomida tarixchi olimlar va tadqiqotchilarning tadqiqot obyekti sifatida o'rganib kelinmoqda. Xususan, Amir Temur davlati bevosita Usmoniy imperiyasi davlati bilan doimiy siyosiy, diplomatik hamda madaniy aloqada bo'lgani bois, har ikki davlatning rivojlanish tendensiyalari bir-birining doimo diqqat markazida bo'lgan.

Kichik Osiyo mintaqasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan Amir Temurning Turk tarixshunoslari tomonidan o'rganilishi tabiiy va hali hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan mavzulardan hisoblanadi. Har holda turk tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar mavzusi Usmoniy davridan beri doimo diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida mamlakatimiz va xorijiy tarixshunos olimlari B.Usmonov, Ismail Aka, Yaşar Yücel, Ensar Macit va boshqa zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolani yozishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, tizimlilik, xolislik va determinizm kabi usullaridan foydalanildi. Xususan, ishda qiyosiy-tarixiy, analiz, sintez, retrospektiv kabi umumfalsafiy metodlar qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turk tarixshunosligida Amir Temur shaxsi hamda davlatchilik faoliyatining o'rganilishini shartli ravishda Usmoniy imperiyasi davri, Jumhuriyat davri va 1991-yildan bugungi kunga qadar bo'lgan davrlarga bo'lish mumkin.

XIV asrdan XX asr boshlarigacha davom etgan Usmoniy imperiyasi davrida Amir Temur tarixini o'rganishda asosan uning harbiy yurishlari va mintaqaga ta'siri masalasiga e'tibor qaratilgan. Usmoniy tarixchilar Amir Temur haqida bir qancha asarlar, jumladan, tarjimai hol va xronikalar yozganlar, ular asosan uning Usmoniylik va boshqa qo'shni davlatlarga qarshi harbiy yurishlariga bag'ishlangan.

Usmoniy tarixchilari tomonidan Temur tarixining o'rganilishi va yoritilishiga sabab bo'lgan bir qancha omillar mavjud:

- Temuriylar va Usmoniy imperiyalari ta'sir doirasi bir-biriga tutash kelgan hamda mojaro va diplomatiyani o'z ichiga olgan o'zaro aloqalarga ega muhim kuchlar edi. Temurning harbiy yurishlari, xususan, 1402-yilgi Anqara jangidagi g'alabasi Usmoniy davlati uchun katta ta'sir ko'rsatdi. Usmoniy tarixchilari Temurning strategiyalari va siyosiy manevrlarini o'rganib, o'zlarining diplomatik va harbiy siyosatlariga asos bo'la oladigan ma'lumotlarga ega bo'lishgan. Usmoniy mintaqada tez-tez harbiy yurishlar olib borgan va temuriylar kabi ko'plab qiyinchiliklar va imkoniyatlarga duch kelgan. Temuriylar tarixini o'rganish Usmoniy tomonidan o'zlashtirilishi va qo'llanilishi mumkin bo'lgan harbiy taktikalar, siyosiy strategiyalar va boshqaruv tuzilmalari haqida qimmatli ma'lumotlar olish imkonini bergan. Temur o'zining harbiy mahorati va o'z hukmronligi ostida turli guruhlarini birlashtira olishi bilan mashhur bo'lgan va uning yurishlari mintaqa siyosatiga doimiy ta'sir ko'rsatgan. Amir Temurning ulug' davlatchilik siyosati va harbiy kompaniyalari bevosita Kichik Osiyo mintaqasi va Usmoniy imperiyasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarning o'zgarishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi;

- har ikki imperiya ham o'z hukmronligini o'sha davrning boshqaruv qonuniyatlariga ko'ra legallashtirish va mustahkamlashga intildi. Temuriylar davrini o'rganish Usmoniy uchun dolzarb bo'lgan boshqaruv, ma'muriyat va hokimiyatni mustahkamlash haqida tushuncha berishi mumkin edi. Shuningdek, Usmoniy imperiyasi o'zining gullagan davrida dunyodagi eng muhim siyosiy kuchlardan biri bo'lib, uning hukmdorlari tarix va boshqa buyuk imperiyalar va hukmdorlar merosi bilan chuqur qiziqishgan. Shunday ekan, Usmoniy tarixchi va olimlari Amir Temur va uning saltanati tarixi bilan qiziqishi tabiiy hol;

Bundan tashqari, Temuriylar saltanati o'zining gullagan davrida mintaqada muhim kuch bo'lgan va uning madaniy va san'at sohasidagi yutuqlari mintaqaga doimiy ta'sir ko'rsatgan. Bu omillar birlashib Temuriylar davlati tarixini Usmoniy imperiyasi doirasida qiziqish mavzusiga aylantirdi.

Turkiyadagi temuriyshunoslik Usmoniy davrida ba'zi temuriy manbalarning fors tilidan turk tiliga tarjima qilinishi bilan boshlangan. Masalan, temuriylar davri tarixchilaridan Mirxondning "Ravzat us-safo" asari XVI asr o'rtalarida Mustafo bin Vosif hamda Hasanshoh va Bolatzoda Mehmed Kamol ismli mualliflar tomonidan Fors tilidan Usmoniy turk tiliga tarjima qilingan.⁶⁸ Bundan tashqari, Ibn Arabshoh tomonidan Amir Temurning hayot yo'li va faoliyati haqida yozilgan "Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur" (Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari) nomli asar 1698-yilda Nazmizoda Murtazo tomonidan arabchadan Usmoniy turkchasi tarjima qilingan va Bag'dod hokimi Ali Poshoga taqdim etilgan.⁶⁹ Nazmizoda turkchaga tarjimada arab tilidagi aslidan farqli ma'lumotlarni kiritgan. U asarga o'zining epigrafini qo'shib, Ibn Arabshoh epigrafini olib tashlagan.

⁶⁸ Charles Ambrose Storey, Persidskaya literatura: bio-bibliograficheskii obzor v trekh chastyax. Perевел с английского, переработал и дополнил Y. E. Bregel. Част 1. Moskva: Vostlit, 1972, 373-374

⁶⁹ Nazmizade Murteza, Gulşen-i Hulefa (Bagdat Tarihi, 762-1717), Tahlili ve metin tenkidi: Mehmet Karataş. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2014, XXV.

TARIX

Yana o'sha tarjimon keyinchalik bu tarjima asarini biroz soddalashtirib, oxirida Amir Temur farzandlari haqida bo'lim qo'shadi. Bu asar ilk bor 1730-yilda Ibrohim Muteferrika tomonidan Istanbulda, keyinroq 1861-yilda "Temur Ko'ragon tarixi" nomi bilan nashr etilgan. Asarning bir nusxasi bugungi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

1727-1728-yillarda Usmoniy tarixchisi va ulamosi Kuchukchelebizoda Asim afandi 1419-1422-yillarda Temuriylar elchiligi delegatsiyasi tarkibida Xitoyga jo'natilgan G'iyosiddin Naqqoshiyning "Sayohatnoma"sini forschadan Usmoniy turkchaga "Ajoyib ul-latoif" nomi bilan tarjima qilgan va bu asarni vazir Damat Ibrohim Poshoga bag'ishlagan. Turk adabiyotida sayohatnoma janriga namuna bo'la oladigan birinchi asar aynan Xoja G'iyosiddin Naqqoshiyning "Ajoyib ul-latoif" asaridir. Bu asar Turkiyada "Xitoy elchixonasi" nomi bilan ham mashhur. Asarda Mirzo Shohruh tomonidan Xoja G'iyosiddin boshchiligida Xitoy imperatoriga yuborilgan elchilik delegatsiyasining Hirotdan boshlanib, uch yil davom etgan sayohati tasvirlangan. Fors tilida yozilgan bu asar keyinchalik turk tiliga tarjima qilingan. Kuchukchelebizoda Asim tomonidan tarjima qilingan bu asar birinchi marta 1913-yilda Ali Amiri Afandi tomonidan chop etilgan. Asarning qiymatini Kotib Chalabiy o'zining "Jahonnoma" asarining Xitoyga oid bobini, shuningdek mashhur Usmoniy sayyohi Ali Akbar Xitoy "Xitoynoma" sayohatnomasini yozishda aynan yuqoridagi asardan foydalanganligidan ham bilishimiz mumkin.

Qolaversa, bosh vazir Muhammad Ragip Posho Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla us-Sadayn" nomli yilnomasini tarjima qilishga kirishadi, ammo uning urinishi yakunlanmay qoladi.⁷⁰

Usmoniylar davrining oxirlariga kelib temuriylar tarixiga oid ilmiy maqolalar nashr etila boshlandi. 1911-yilda Usmoniy imperiyasida "Turk yurti" nomli ilmiy jurnal nashr etila boshlandi. Ushbu jurnalning asoschisi keyinchalik Erzurumga gubernator bo'lgan Mehmet Emin Bey edi. Mehmet Emin Bey Erzurumga gubernator bo'lganidan so'ng ushbu jurnalni yuritish ishlari Yusuf Akchuraga ishonib topshiriladi. Ushbu jurnalning asosiy vazifasi bu turkiy xalqlarning tarixini yoyishga qaratilgan edi. Xususan ushbu jurnalda 1912-yilda M.Nermi tomonidan Amir Temurning Eronga qarshi harbiy yurishlari tarixiga bag'ishlangan "1386-yilgi qurultoy hamda Temurning Eron safari"⁷¹ nomli maqola chop etiladi. Bu o'sha davr nuqtai nazaridan Usmoniy tarixshunsoiligida Amir Temur haqidagi ilk ilmiy maqolalardan biri edi. Shuningdek ushbu jurnalda M. Rahmi tomonidan 1918-yilda "Temurning vasiyati"⁷² nomli ikki qismdan iborat maqola chop etiladi.

Abdulloh Jevdet Usmoniylar imperiyasining so'nggi yillari va Turkiya Respublikasi tashkil topishi davrida yashab o'tgan turk siyosatchisi, mutafakkiri, oftalmolog, shoir va tarjimon edi. U 1904-yilda "Ijtihad" nomli bosmaxonasiga asos solgan. U 1925-yilda "Ayol va Temur" nomli maqolasini o'z gazetasida chop ettiradi.⁷³ Ushbu maqolasida Amir Temur davlati va o'sha davr jamiyatida ayollarning o'rni va rolini ochib berishga harakat qiladi. Maqolada Temur davridagi ijtimoiy va madaniy dinamika muhokama qilinib, ayollar qanday idrok etilgani va ularning davr madaniy hayotidagi ta'sirini tasvirlashga harakat qiladi. Shuningdek, u zamonaviy jamiyat me'yorlarini muhokama qilish uchun tarixiy pretsedentlarni aks ettirgan holda, gender bilan bog'liq zamonaviy masalalarga sharh berishga urinadi.

Sheref Mehmed tomonidan 1914-yilda "Ijtihad" jurnalida "Islom tarixi oldidagi sukunat: Chingiz, Huloku, Temur" nomli 4 qismdan iborat maqolasi e'lon qilinadi. Maqolada ularning islom olamiga ta'siri, zabtlari va natijada sodir bo'lgan madaniy va siyosiy o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Jumhuriyat davrida dastlab asosiy manba tarjimalari, so'ngra Amir Temur va temuriylar hukmdorlari hayotiga oid kitoblar nashr etildi. Shu nuqtai nazardan, asosan, Amir Temur hayotiga oid asarlar yaratilgan. Keyinchalik boshqa hukmdorlar qatorida Mirzo Shohruh, Ulug'bek va Sulton Husayn Bayqaro davrlari ustida tadqiqotlar olib borilgan. Vaqt o'tishi bilan turk tarixchilari tomonidan Temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy hayoti, ma'muriy tashkil etilishi, xalqaro munosabatlardagi o'rni haqida tadqiqotlar yozila boshlandi. Ayniqsa, prof. Ya'sar Yücel,

⁷⁰ Charles Ambrose Storey, *Persidskaya literatura: bio-bibliograficheskii obzor v trekh chastyax*. Perевел с английского, переработал и дополнил Y. E. Bregel. Част 1. Moskva: Vostlit, 1972, 373-374

⁷¹ Nermi M. "1386 Kurultayı ve Timur Han'ın İran Seferi", *Türk Yurdu*, 29 Teşrin-i Sani 1328, sayı: 4, 3: 115-120

⁷² Rahmi M. "Timur Han'ın Vasiyeti", *Türk Yurdu*, 16 Mart 1334, sayı: 5 (155), 14: 154-158

⁷³ Cevdet, Abdullah. "Kadın ve Timurlenk", *Ictihad*, 10 Mart 1925, sayı: 176, 20: 3527-3530

prof. Ismoil aka, prof. Hayrunnisa Alan, prof. Musa Shamil Yuksel va boshqalar bu sohada muhim asarlar yaratdilar.

XULOSA

Afsuski, Turkiyada Amir Temur haqidagi tasavvur uzoq vaqt davomida ijobiy bo'lmaganini eslatib o'tish joiz. Bu salbiy tushuncha Usmoniy imperiyasi davridan kelib chiqqan. Chunki Amir Temurning Anqara jangida Yildirim Boyazidni mag'lubiyatga uchratishi va undan so'ng Usmoniy saltanatining tushkunlik davriga kirishi Usmoniy ma'muriyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi va bu zarba Usmoniy tarixchilarining asarlarida ham o'z aksini topdi. Biroq keyingi paytlarda bu salbiy yondashuv o'zgarib boshlagani va bugungi kunda Turkiyaning ko'plab tarixchilari tomonidan Amir Temur Turk dunyosining hurmatli hukmdori sifatida ko'rilayotganini aytish lozim.

Usmoniy tarixchilarining Amir Temurni o'rganishi harbiy, siyosiy va madaniy jihatlarni qamrab olgan ko'p qirrali ish edi. Ular tarjimalar va original asarlar orqali Temur merosining murakkab tomonlarini ochishga intilib, jahon tarixida Amir Temur tarixini yanada kengroq tushunilishiga hissa qo'shdilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aka, Ismail, Timurlular Devleti, DGBIT., İstanbul 1987, IX, 181-300.
2. Aka, Ismail, Timurlular, DİA, XXXXI, İstanbul 2012, 177-180.
3. Aka, Ismail. Timurlular, Türkler: Ankara 2002, VIII, 517-533.
4. Akbıyık, Hayrunnisa Alan, Timur'un Toktamış Üzerine Seferleri ve Altın Orda'nın Yıkılması Meselesi, Bilig, Ankara (Güz) 2003, 27, 117-154.
5. Alan, Hayrunnisa, (2009), "Muizzü'l-ensab'ın Timurlu Teşkilâtı Tarihi Bakımından Değerli", Timur Dönemi ve Sonrası Kaynak Araştırmaları Sempozyumu 13-19 Temmuz 2009, Ankara, ss.527-548.
6. Alan, Hayrunnisa, (2015), "Bozkırdan Cennet Bahçesine (1360-1506)", İstanbul: Ötüken Yay.
7. Alan, Hayrunnisa, (Yaz 2004), "Timurluların Bilim ve Sanata Yaklaşımları ve Bazı son Dönem Sanatkârları", Bilig Dergisi, S. 30, ss. 151-171.
8. Амир Темур жаҳон тарихида.-Т.: Шарқ, 1996. — 295 б.
9. Усмонов Б. Амир Темур давлати. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2016. – 126 б.
10. Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси – Т.: IJOD PRESS, – 156 б..
11. Усмонов Б.А. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVIII-XX асрлар): Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 б.
12. Чарлес Амбросе Сторей, Персидская литература: био-библиографический обзор в трёх частях. Перевел с английского, переработал и дополнил Й. Э. Брегел. Часть 1. Москва: Востлит, 1972, 373-374.
13. Nazmizâde Murteza, Gülşen-i Hulefâ (Bağdat Tarihi, 762-1717), Tahlili ve metin tenkidi: Mehmet Karataş. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2014, XXV.
14. Nermi M. "1386 Kurultayı ve Timur Han'ın İran Seferi", Türk Yurdu, 29 Teşrin-i Sani 1328, sayı: 4, 3: 115-120.
15. Rahmi M. "Timur Han'ın Vasiyeti", Türk Yurdu, 16 Mart 1334, sayı: 5 (155), 14: 154-158
16. Cevdet, Abdullah. "Kadın ve Timurlenk", İctihad, 10 Mart 1925, sayı: 176, 20: 3527-3530